

TONG Yulduzi

№34 (66367)
 2002 yil
 19 avgust,
 dushanba
 Sotuvda
 erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

DUNYO BOLALAR NIGOHIDA

Bugun Respublika o'quvchilar saroyi bolajonlar bilan yanada gavjum bo'ldi. Ularni kuzatar ekanman, ko'zlarida quvonch va hayajon borligini his qildim.

Ular Respublika o'quvchilar saroyi qoshidagi turli to'garaklarning eng faol a'zolari edilar.

Hayajonlanishlarining boisi o'zlari singari iqtidorli tengdoshlari bilan rasm chizish bahsida bellashishlari kerak edi-da...

Nihoyat «Dunyo bolalar nigohida» nomli rasmlar tanlovi boshlandi. O'quvchilar bor qobiliyat va mahoratlarini ishga solib, asfaltga rasm chizishga kirishib ketishdi. Har bir ishtirokchi o'z hayoli bilan band, tasavvurlar osmonida parvoz qilardi go'yo.

Bolalarning «Men dunyoni qanday ko'raman?», «Buyuk ipak yo'li», «Tabiat va ekologiya», «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» mavzularidagi rasmlari tomoshabinlarning ham, xay'at a'zolarining ham e'tiborini tortdi.

Tanlovda ota-onalar, Respublika «Tasviriy oyina» uyushmasi, «Tufin» turk qandolat qo'shma korxonasi, YUNISEF tashkiloti xodimlari ham qatnashib, ishtirokchilarni rag'batlantirishdi. Ular



Men yaqinda mana bun-cha yoshga to'laman. Oyijonim papka, kitob-daftar, ruchka, qalam olib beradilar. Keyin MAKTABGA boraman!

tomonidan topshirilgan esdalik sovg'alari bolalarni yanada ruhlantirib yubordi.

Tanlovning eng kichik ishtirokchisi — Begim Islomova ham g'oliblikni qo'lga kiritdi. «Hamshira» togaragi a'zosi Nigora Mirrashidova, «Naqqoshlik» to'garagi qatnashchisi Ayubxon Majidov, «Bichish-tikish» to'garagi a'zosi Lola Shomansurova, «Kompyuter» to'garigidan Komila Ahmedova, Rasul Yoqubovlar ham sira bo'sh kelishmadi. Ular asfaltga rasm chizishda boshqa tengdoshlaridan ancha ustun ekanliklarini namoyon etishdi. Shuning uchun ham sovg'alarning eng zo'ri ularga nasib etdi.

Mustaqilligimizning 11 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan ushbu tanlovda yana qanchadan-qancha yosh umid g'unchalari «kashf etildi», desak mubolag'a bo'lmaydi. Kuy va qo'shiqlarga, qiziqarli tanishuvlarga, maroqli suhbatlarga boy bo'lgan tadbir barchada katta taassurot qoldirdi.

*Muhabbat
 SHERBO'TAYEVA,
 Respublika «Tasviriy
 oyina» ijodiy uyushmasi
 xodimi.*

Ibrat

Ha, chindan ham Namangan gullar shahri. Ayni kunlarda bu shahar favvoralar shahri ham deyilyapti. Bunga sabab, keyingi paytlarda viloyatda ko'plab go'zal binolar, kishini zavqlantiradigan favvoralar qad rostladi. Ko'plab bilim maskanlari, kollej va litseylar bunyod etildi. Shahardagi keng va ravon shoh ko'chalarni aytma-sizmi?

Ushbu bunyodkorlik ishlarida viloyat «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi xodimlarining xizmatlari ham bisyor. Ularning katta-katta plakatu pannolari shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi.

- Yaqinda Namangan shahar xalq ta'limi bo'limi hamda tuman xalq ta'limi bo'limlariga Konstitutsiyamizni targ'ib qiluvchi plakatlarni sovg'a qildik,- deydi Namangan

ko'maklashdik. Ularga bolalarbop shiorlar, plakatlarni, ertakli rasmlar sovg'a qildik.

Yaqinda shahardagi «Bobur» nomli bog'da bolalar o'rtasida rasmlar tanlovini o'tkazdik. Unda rasm chizishga qiziquvchi ko'plab o'g'il-qizlar ishtirok etdilar.

Bundan tashqari Mustaqilligimizning o'n bir yilligiga bag'ishlangan «Eng ulug' va eng aziz» ko'rik-tanlovining

Ayniqsa, bolalar tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berishadi. Ayni ta'til kunlarida mahalladagi har bir bola ularning diqqat-e'tiborida bo'ladi.



Namangan shahar, shoh bekatida joylashgan «Favvora».

GULLAR SHAHRI NAMANGAN

Bekorchilikdan zerikib yurgan o'smirlarni kasb-

hunar to'garaklariga jalb qilishga harakat qiladi. Shuningdek, bolalar

viloyat bosqichini yakunladik. Tanlovda kattalar qatorida talabalar, maktab o'quvchilari ham ishtirok etishdi. Garchi kichikintoylar g'oliblikni qo'lga kiritolmagan bo'lsalar-da, bundan sira xafa bo'lmadilar. Balki, yanada ko'proq o'qishlari,

ishtirokida mahallalararo musobaqalar uyushtiradi, tanlovlar tashkillaydi.

Bizning «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmamiz mahalla pedagog tarbiyachisining ishlariga amaliy yordam beradi. Plakatlarni tayyorlashda, devoriy gazetalar chiqarishda, suhbatlar uyushtirishda ko'maklashadi. Musobaqa va tanlovlarning g'oliblarini rag'batlantirish, atrofni bezash ishlariga imkon qadar yordamlashadi.

Rejalarimiz katta. Bolajonlar ishtirokida qator tadbirlar, bellashuvlar, suhbatlar o'tkazish niyatidamiz. Maqsadimiz - o'g'il-qizlarimiz bo'sh vaqtlarini maroqli, mazmunli va albatta foydali o'tkazsinlar.

Iskandar AZIZJON o'g'li.



Namangan Davlat Universiteti, huquqshunoslik fakulteti binosi yaqinida qad rostlagan «Konstitutsiya xiyoboni».

viloyati, «Tasviriy oyina» ijodiy uyushmasi boshqaruv raisi Abdulvohid aka RAHMONOV. - Qayta ta'mirlangan Namangan shahridagi 4 - bolalar kasalxonasi hamda Davlatobod tumanida qurilgan «Akvopark» bolalar bog'ining badiiy bezatish ishlarida

izlanishlari kerakligini tushunib olganliklarini ularning so'zlaridan bilib oldik.

Yana bir gap. Xabaringiz bor, barcha mahallalarda «Mahalla pedagog tarbiyachisi» saylanyapti. Ularning vazifasi mahallalar ahli orasida tarbiyaviy ishlarni olib borishdan iborat.

Kitob o'qishni unutmadigizmi?

Bu gal ham bilag'on Mirvali bizni lol qoldirdi. Yangi oshnam bilan koptok tepishib, oromgohning etagidagi qo'shchinorning quyuq soyasida dam

kechki pishar o'rik yerga to'kilib yotibdi. Biz ularni yig'ib turshak qilib qo'yamiz, -dedi Mirvali.

- Shuncha turshakni nima qilamiz,

SIZGA TANISH MIRVALI

olib o'tirgan edik. Olisdan Mirvali o'tib qoldi. Bizni ko'rib g'alati iljaydi-da, kutubxonaga kirib ketdi.

- Shu bolaga hayronman,- dedi oshnam,- bo'zchining mokisidek kutubxonaga yugurgani-yugurgan.

- Bizga o'xshab mazza qilib dam olsa-chi, -dedim men ham uning harakatiga g'ashim kelib.

- Shuni ayt, - sherigim chinor daraxtiga suyandi, - odam olis- olislarga qarasa boshiga g'alati-g'alati fikrlar kelarkan. Bittasini aytaymi?

- Ayt,- dedim fikriga qiziqib.

- Qani ayt-chi, nima uchun futbol alohida dars bo'lib kirmaydi?

- Qoyilman, boshing bosh emas, kompyuter, - dedim.

Shu payt Mirvali o'tib qoldi.

- Hoy, nima qilib o'tiribsizlar? - uzoqdan qichqirdi Mirvali.

- Ko'ryapsan-ku, dam olib o'tiribmiz. Koptok o'ynab rosa charchadik,- dedik halloslab.

Mirvali bizga


sotamizmi?

- Nega sotarkanmiz. Biz quritgan o'rikni bolalar uyiga, shahardagi bolalar bog'chalariga tarqatishadi.

- Menga qara, bizni ishlatish uchun yangi topgan bahonangmi deymen-a?

- Gapim rost. O'rik 40 dan ziyod

O'rik daraxti ostiga yoki o'rikzor qator oralariga, ayniqsa yosh o'rikzorlarga kartoshka, baqlajon, qalampir va pomidor singari ekinlar ekmaslik shart.



mamlakatda o'stiriladi. Uning mevasi pishganida ham, quritilganida ham xushho'r va parhez bop hisoblanadi. Chunki uning tarkibida 18 foizdan ortiq qand, 2,5 foiz kislota, 1 foizdan ziyod pektin moddasi, A, V, va S vitaminlari, shuningdek, turfa xildagi mineral tuzlar bor. Nega gaplarimga ishonmaysizlar. Mana, o'qinglar bo'lmasa.

Mirvali bizga

qo'lidagi kitobni berdi-da, o'zi bolalar bilan o'rikzorga kirib ketdi.

Qo'limizdagi kitob Abu Ali ibn Sino nashriyotida chop etilgan A. Akromov, M. Muxtorovlarning «O'rikning shifobaxshligi» deb nomlangan kitobchasi edi. Bu kitobchani avvaliga hafsalasizlik bilan varaqlay boshladik. Keyin shunaqa qiziqib ketdikki, risolani bir zumda oxirigacha o'qib tugatibmiz.

Mirvalining gaplariga ishonmaganimizdan uyalib qoldik. Ular orqasidan o'rikzorga yo'l olganimizni o'zimiz ham payqamabmiz.

Aziz tengdoshlar! Sizga ham maslahatimiz kitobchani albatta o'qib chiqing. O'rik mevasi haqidagi ko'p ma'lumotlarni bilib olasiz.

A.ABDULLAJONOV.

Prezident asarlarini o'rganamiz

MILLIY ISTIQLOL G'OYASI:
ASOSIY TUSHUNCHA
VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.)

Mamlakatning jahondagi nufuzi uning iqtisodiy va intellektual salohiyati, dunyo sivilizatsiyasi, fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissasi, ayni vaqtda, umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga nechog'liq amal qilishi, xalqning turmush darajasi bilan belgilanadi.

Dunyo hamjamiyatidan o'ziga xos o'rin egallab borayotgan O'zbekiston o'z ichki va tashqi siyosatida ana shu mezonlarga tayanadi.

Mamlakatimizning ichki siyosati «Inson va uning manfaatlari har narsadan ulug'» degan tamoyil asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti yaratib berish, uning haququq va erkinliklarini kafolatlash, ozchilikning ko'pchilik irodasiga bo'ysunishi, shu bilan birga, ozchilik fikrining ham ko'pchilik tomonidan hurmat etilishi kabi demokratik qoidalarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston o'z tashqi siyosatida barcha davlatlar bilan teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik va xavfsizlikni asrab-avaylash, xalqaro huquq me'yorlarining ustuvorligi kabi tamoyillarga amal qiladi.

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlash, uni yadro qurolidan xoli makonga aylantirish, mintaqaviy mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish, xalqaro terrorchilik va aqidaparastlikka qarshi kurash mamlakatimizning jahondagi nufuzini yanada oshirishga xizmat qiladi.

4. Mafkuraviy muammolar:
g'oyaviy bo'shliq va zararli
g'oyalarning
jamiyatimizga ta'siri

Tarixiy qonuniyat shundan dalolat beradiki, bir ijtimoiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish davrida, jamiyat hayotining barcha sohalarida bo'lgani singari, g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilish zarurati yuzaga keladi.

(Davomi bor.)

Umumiy o'rikzorlarning

43,5 % i O'rta Osiyo

Respublikalariga to'g'ri kelar ekan.

Ular 4 million 11000 tupni tashkil qilib, shundan

18,5 % i O'zbekistonga, 16,0% i

Tojikistonga, 5,3 % i Qirg'izistonga va faqat

0,9 % i Qozog'istonga to'g'ri

keladi.

yaqinlashib:

- Ko'rinib turibdi, ikkoving dokadek oqarib ketibsizlar. Sababi, yuragingizning mushaklari bo'sh, kaliy moddasi yetishmaydi.

- Nima, nima deyapsan? Obbo shifokor-yey.

- Shifokor bo'lish shart emas. Kaliy moddasi o'rikda ko'p bo'ladi. Ana, oromgohimizning bog'ida 150 tup



XATLAR TEGIRMONI

HOSIL
BAYRAMI

Yurtimizda yetishtiriladigan noz-ne'matlarning ta'rif butun dunyoga mashhur. Ular shifobaxsh xususiyati bilan hatto tillo narxigacha ko'tarilarkan. Masalan, har kuni tongda ikki dona o'rik qoqisini tanovvul qiladigan xorijlik «eng qimmat» dori deb ta'riflansa, faqat O'rta Osiyoda o'sadigan shotutning yozda mevasidan, qishda ildizidan xalta-xaltalab olib ketayotgan chet elliklar tutning xususiyati haqida soatlab so'zlashadi. Nainki bu ikki turdagi mevalar, balki boshqa qator mevalarning xususiyatini yaxshi biladigan, ularni suyib iste'mol qiladigan insonlar ko'p. Hademay yurtimizda hosil bayramlari boshlanadi. Dasturxonlarimiz tabiat in'omlari bilan liq to'la. Ular bizga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Ayni kunlarda Baxmalimizda ham pishiqchilik. Biznikiga mehmonga kelsangiz, tilyorar mevalardan tatib ko'radingiz.

Hosiyat G'OIPOVA,
Jizzax viloyati, Baxmal
tumanidagi 23-o'rta
maktab o'quvchisi.

Ayollarni, onalarni e'zozlash o'zbek xalqiga xos xususiyatidir. Mirzo Ulug'bek tumanining Oqqo'rg'on mahallasida «Nestle» kompaniyasi xotin-qizlar uchun ajoyib bir tadbir uyushtirdi.

Choyxona hovlisi «Nestle» savdo belgisi ostidagi turli mahsulotlar bilan bezatildi. Natasha va Nargiza ismli qizaloqlar davrani olib borishdi. Kulguli xangomalar, ertaklar, she'rlar aytib hammani lol qoldirishdi. Tadbirga mehmon bo'lib kelgan buvijonlarimiz ularning chiqishlarini maroq bilan tomosha qilishdi. «Nestle» kompaniyasi xodimlari «Nestle» suvining, sutining

hamda bolalar ertalabki nonushtada mazza qilib yeydigan bo'tqalarining yaxshi va foydali jihatlari

«NESTLE»

SUTINI ICHING...



haqida gapirdilar. So'ng to'ldirilgan anketalar bo'yicha o'yin chiptalari o'ynaldi. Omadimni qarangki, men ham

yutuqli chiptada sovg'a egasi bo'ldim. So'ngra bizni «Nescafe» qahvasi hamda «Maggi» lapshasi bilan mehmon qilishdi. Bu hali hammasi emas. Tashrif buyurgan ona va bolalarga sovg'alar ulashishdi. «Nestle» mahsulotlari shu kuni mahallada yashaydiganlar uchun o'ttiz foiz arzonlashtirilgan narxda sotildi.

Bu tantana hammaga ma'qul bo'lgani yig'ilganlarning yuz-ko'zlaridan sezilib turardi.

Nazokat
BOBOQULOVA,
Toshkentdagi
142 - maktabning
11- sinf o'quvchisi.

YIG'ILISHSAK TO'Y BO'LAR

Haqiqatan ham 11 nafar farzand, 35 nabira va 5 evara bobomlarnikiga yig'ilishsak, salkam to'y bo'lib ketadi. Bunday yig'inlar esa tez-tez bo'lib turadi. Chunki bobom Mirakbar Mirpo'latov hamda buvijonim Naziraxon Jalilxon qizini hammamiz juda yaxshi ko'ramiz-da. Yaxshi ko'rmay bo'ladimi axir, uzoq yillar murabbiylik qilib, xalq maorifi a'lochisi unvoniga sazovor bo'lgan bobomning hikmatga boy so'zlarini tinglab to'y mayimiz, buvijonimizning issiq bag'irlaridan nari ketgimiz kelmaydi. 2000 yilda muborak Haj safaridan hojilik unvoni bilan qaytgan bobom va buvinga bag'ishlab bir she'r yodzim:



«Ishongan bog'im mening,
Tog'day
tayanchim mening,
Farzandim

- dilbandlarim»,
Deya suyguvchi buvam.
«Suyganim - nevaralar,
Besh asal evaralar,
O'n bir bolam — qanotim»
Deydilar doim buvim.

Yig'ilishsak to'g'bo'lar,

Dillar quvonchga to'lar.
Katta bog'da yayraymiz,
Yugurishib o'ynaymiz.

Buvam omon bo'lsinlar,
Buvim yuzga chiqsinlar.
Biz oyoqqa turganda
Ko'rib quvnab yursinlar.

Zilola
MIRPO'LATOVA,
Toshkent tumanidagi
9 - maktabning
6 - «B» sinf o'quvchisi.

Men O'zbekiston Milliy Universiteti qoshidagi S.Rahimov akademik litseyida o'qiyman. Litseyimiz 1998 yilda tashkil etilgan bo'lib, talabalar aniq, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy yo'nalishlarda bilim oladilar. Darslarni asosan universitetning professor o'qituvchilari olib boradilar. Litseyda bilim oluvchilar uchun barcha sharoitlar mavjud, sinf xonalari

zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan. Qishki va yozgi sport zallari talabalar

YANGI BINODA O'QIYMIZ

ixtiyorida. Litseyimizning boshqa litseylardan afzal tomoni shundaki, iqtidorli, bilimga chanqoq talabalarni rag'batlantirish maqsadida eksternat tashkil etilgan. Eksternatga a'zo bo'lgan talabalar maxsus

tayyorlangan sinov imtihonlari asosida sinovdan o'tkaziladi. Sinovdan

muvaffaqiyatli o'tgan har bir talaba I-kursdan III-kursga qabul qilinadi. Bu yil litseyimizdan 7 nafar o'g'il-qiz mana shunday baxtga muvassar bo'lib, I-kursdan III-kursga qabul qilindilar. Ularga havas qilib, biz ham astoydil

o'qishga harakat qilyapmiz.

Bugungi kunda litsey talabalari uchun qurilayotgan yangi binoda qurilish ishlari qizg'in olib borilmoqda. 2002-2003 o'quv yilida yangi binoga ko'chib o'tish niyatimiz bor.

*Atirgul
UNGARBOYEVA,
O'zbekiston Milliy
Universiteti qoshidagi
S.Rahimov akademik
litseyi talabasi.*

MAROQLI HORDIQ

Biz oilamiz bilan dam olgani toqqa chiqdik. U yerning havosi toza, suvlari tiniq va alohida hovuzlari bor ekan. Daraxtlarda olma, shaftoli, nok va boshqa mevalar g'arq pishib yotibdi. Tog'ning yonbag'irlaridagi do'lanalar hali mevasi pishmagan bo'lsada, odamni ko'zini quvontirib, o'zgacha ko'rk bo'rib turibdi. Biz u yerdan har xil dorivor



o'simliklar terdik. Zilol suvda mazza qilib cho'mildik. Tog'ning go'zal joylarida suratlarga ham tushdik.

Men yozgi ta'tilda shu tariqa mazza qilib dam oldim. Endi yangi o'quv yilini zo'r kuch, g'ayrat bilan boshlamoqchiman.

*Dilshod INOMOV,
Shayxontohur tumanidagi
316 - maktabning 6 - «V» sinf o'quvchisi.*

BAHRI DILING OCHILAR

Gullarni sevmagan, ularni parvarishlab ko'paytirmagan qizlar kamdan-kam uchrasa kerak oramizda. Men ham asosiy vaqtimni gul ekish va o'stirish bilan o'tkazaman. Hovlimiz yo'laklari chetlari, ariq bo'ylari o'zim ko'paytirgan rang-barang, turfa gullarga belanib yotibdi. Chinnigul, gulbeor, atirgul, qirq og'ayni va boshqa gullarni o'rtoqlarim bilan o'zaro almashtirib ko'paytirganman.



Ota-onam ham gullarimga bahri dillari ochilib, havas bilan qarashadi. Nozik didli qizlarga eng yaxshi «xobbi» — bu gul o'stirish bo'lsa kerak, deb o'yalayman.

*Shoxsanam ABDURAHIMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Kitob shahridagi
27 - o'rta maktabning 9 - sinf o'quvchisi.*

Tunov kuni televizor tomosha

ALPOMISHINI O'QIGANMISIZ?

qilayotgan edim. «Mo'jizalar maydonchasi» teleo'yini boshlanib qoldi. Uni qiziqish bilan tomosha qila boshladim. O'yin ishtirokchilariga «Alpomish» dostonidan savollar berildi. Biroq negadir ishtirokchilar ularga zo'r-bazo'r javob berishdi. Qizig'i shundaki, super o'yinga hech kim chiqa olmadi. Nega desangiz

finalda berilgan savolga uchchala o'yinchi ham javob bera olmadi. Ushbu o'yindan so'ng menda bir niyat tug'ildi: «Alpomish» dostonini albatta o'qib chiqaman. Mana Mustaqilligimizning 11 yilligi bayrami ham yaqinlashyapti. Yurtboshimiz ham, xalqimiz ham bizga ishonadi. Kelajak yoshlarniki, deya bizga barcha sharoitlarni yaratib berishmoqda.

Biz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher

Navoiydek bobokalonlarimizning avlodlari bo'lsagu, xalq og'zaki ijodining oltin merosi bo'lgan Alpomishni bilmasak, undan bexabar bo'lsak, qani ayting, kelajakni qanday qura olamiz?..

*Maxmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169 - maktab o'quvchisi.*

Muhokama uchun mavzu

O.PO'LATOVA —

o'qituvchi:

Hindiston mamlakati o'quvchilarining formasiga

M.QODIROVA — uy

bekasi:

Mening ham bir o'g'il, bir

maktab formasiga bo'lgan munosabatini muhokama qilishardi. Ulardan biri:

kelishadi. Lekin u ham maktab talabiga javob bermaydi, to'r, munchoqlar bilan bezatilgan yoki turli

HECH KIMGA SIR EMAS

e'tibor bergan bo'lsangiz, qizlarida oq kofta, oq yubka, qora kostyum, o'g'il bolalari esa oq ko'ylak, oq shim, qora kostyum kiyishadi. Shunaqa ochiq rangli kiyimlarda o'quvchi o'zini yengil his qiladi va ozodagarchilikka qattiq rioya qiladi. Men o'quvchilarimiz formasini bayrog'imizda ask ettirilgan och yashil rang va moviy rangdagi matolardan tikilishini xohlardim...

N.USMONOVA —

tikuvchi:

Albatta, o'quvchi o'ziga yarashganini kiyishi lozim. Ko'pgina mijozlarim kelishadi-da, «Nilufar opa, hozir qanday rusmda kiyim kiyishyapti?», deb so'rashadi. Urf bo'lgan fason o'sha qizga yarashmasligi ham mumkin-ku, axir. Shuning uchun o'quvchilarimiz maktab formalari bir xilda qilib belgilansa va men ularga o'zlariga mos qilib tikib bersam, jamiyatimiz ravnaqi uchun bir kichkinagina hissa qo'shgan bo'lardim.

M.ATAXO'JAYEVA —

o'quvchi:

Aslida maktabga shim kiyishni ta'qiqlashgan. Ammo sovuq kunlarda shim kiyishga majbur bo'lamiz. Maktabimiz direktori bizni shim kiyishimizga qarshi bo'lmasalar, yaxshi bo'lardi.

qizim bor. Sovuq kunlarda (maktab formasi bo'lmasa ham) qalin kiyimlarda maktabga jo'nataman. Ammo maktab ma'muriyati bundan norozi. Nima qilishimiz kerak?..

«Hozirgi yoshlarga ham hayron qolaman-da. Maktabga tor shimlaru kalta yubkalarni kiyib,

Bugungi kunda o'quvchilar maktabga turli o'lchamdagi, har xil rangdagi liboslarni kiyishlari hech kimga sir emas. «O'quvchilar formasi qanday bo'lishi kerak?» degan savol bilan turli kasbdagi va yoshdagi kishilarga, tengdoshlarimga murojaat qildim:

B.ISLOMOV — o'quvchi:

To'y-hashamlarga onda-sonda olib borishadi. Chiroyli kiyimlarim yotadimi chang bosib?! Ularni maktabga kiymasam, qayerga kiyaman?..

Kamola UBAYEVA,

Poytaxtimizdagi 249 -

maktabning

8 - «A» sinf o'quvchisi:

Menimcha, bu o'qituvchi va o'quvchilar orasida eng ke'ng tarqalgan, ko'p tortishuvlarga sabab bo'layotgan savol bo'lsa kerak. Chunki turli qimmatbaho kiyimlarni kiyib kelayotgan o'quvchilar bilan oddiyroq oila bolalari va o'qituvchilar o'rtasida sezilarli ajralish yuzaga kelib qolyapti.

Bekatta avtobus kutib turganimda o'rta yoshlardagi ikki ayolning gaplari qulog'imga chalindi. Ular maktab o'quvchilarining

yanib kelishadi. Bilimlari esa nihoyatda past. O'qishni emas, kiyinishni o'ylashadi», - desa, ikkinchi ayol uning gapini ma'qullab: «Ha, to'g'ri aytasiz. Men ham o'qituvchiman, maktabda anchadan beri ishlayman. O'quvchilarning kiyinishi meni hayron qoldiradi. Qizlarga oq kofta va qora yubka, o'g'il bolalarga esa oq ko'ylak va qora shim maktab formasi sifatida tan olingan bo'lsa-da, o'ziga to'q oila farzandi va kam ta'minlangan oila farzandlari orasida farq bor. To'g'ri, ko'p qizlar oq kofta va qora yubka kiyib

bichimlarda bo'ladi. To'g'risini aytsam, bitiruv kechasida o'quvchilarning kiyimini ko'rib yoqa ushladim. Oldingi bitiruvchilar qanday kiyinishardi-ya! Sochlariga oq lenta taqib, ko'k ko'ylak, oq fartuklarda kelishardi. Hamma bir xilda kiyimda bo'lardi. Qani edi hozir ham shunday kiyinishsa, o'quvchilar orasida t a b a q a l a n i s h bo'lmasmidi?..»

Men o'ylab qoldim. Barcha o'quvchilar birdek maktab formasiga hurmat bilan yondoshib, maktab qonun-qoidalariga rioya qilishsa, juda ajoyib bo'lardi-da?! Axir hozir zamon talabi ham shu-ku! Siz ham fikrimga qo'shilasizmi, aziz tengdoshlar?

Fikrlar turfa xil, takliflar ham. Aziz tengdoshim! Xo'sh, bu borada sizning fikringiz qanday? Talab va istaklaringiz, fikr-mulohazalaringizni bizga yozib yuboring.

Toshkentdagi Arab tiliga ixtisoslashgan 29 - maktabning 8 - sinf o'quvchisi Nigora HUSNIDDIN qizi suhbatlashdi.



O'qituvchi minbari

Aziz bolajonlar, qadrdon maktabingiz quchog'iga qaytishingizga ham sanoqli kunlar qoldi. Ushbu hayajonli damlarda har biringiz yangi o'quv yiliga o'zgacha taraddud ko'rayotgan bo'lishingiz tayin. Bu kunga nafaqat siz, balki biz ustozlaringiz ham puxta hozirlik ko'ramiz. O'tajak darsimiz mavzusi, rejasi ustida izlanamiz. Sizlarga aytar gaplarimizni qog'ozga qoralaymiz.

Quyida e'tiboringizga ana shunday izlanuvchan, fidoiy ustozlaringizdan biri-Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 322 - maktab o'qituvchisi Nasiba Turdiqulovaning bir soatli «Mustaqillik darsi» ishlanmasini havola qilyapmiz.

so'ngida qo'lga kiritgan ulkan yutug'idir. Shu vaqt mobaynida siz biz istiqlolimizning ilk ma'sum shabadasidan bahramand bo'ldik. Unitilayotgan urf-odatlarimiz, ma'naviyatimiz, qadriyatimizni qayta tikladik. Xullas, bugun bizga ana shu egalik xissini qaytarib bergan



mehribonlik, xonadonlarimiz fayzi bo'lmish qariyalarimizga e'zoz, e'tibor yotadi. Sizlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlarni, imkoniyatlarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Qo'lingizni qayga cho'zsangiz, yetadi. Faqat bilimli, ilmi bo'lsangiz bas, dunyo eshiklari siz uchun lang ochilgan. Yurtimizning qay tarafiga boqmang, qad rostlayotgan ko'rkam binolarni, keng va ravon ko'chalarni ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. Uzoqqa bormay, qadrdon maktabingiz bir kuzating-a. Go'yo sizning kelishingizga orolangandek, qayta ta'mirdan chiqibdi. Bog'i, gulzori yashnab turibdi. Tennis korti sizga muntazir. Eng muhimi, «Yo'l harakati shaharchasi» bunyod etilibdi. Bu maydonchada kichik yoshdagi uka va singillaringiz yo'l harakati qoidalarini o'rganishadi. Ham nazariy, ham amaliy mashg'ulotlar o'tishadi...

Bularning bari sizniki, demakki, ularni avaylab-asrash ham sizning zimmangizda. Chunki maktab ham biz uchun Vatan. Zero, Vatan ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk sajdagoh, ota-bobolarimiz hoki poylari jo bo'lgan muqaddas zamin. Vatan — bu ona. Uni ardoqlash, qo'riqlash, har qarichini muqaddas bilish har bir o'g'il-qizning muqaddas burchi ekanligini unutmangiz lozim.

Sohiba HALILOVA.

Darsning maqsadi: qurbon bo'lgan Istiqlolimiz sharofati bilan o'g'lonlarning mardligi, yurtimizda amalga oshirilgan ulkan tarixiy voqealar hayotimizda alohida bosqich, yangi bir davr bo'lib qolganligi haqida ma'lumot berish.

Dars rejasi:

1. O'quvchilarga ona Vatan tuyg'usi tushunchasining mazmun-mohiyatini anglatish, ular ongiga Vatanni sevish, g'urur va iftihar bilan yashash tuyg'ularini singdirish.

2. O'tmishni o'rganmay turib, kelajakni qurib bo'lmaydi.

Tarbiyaviy maqsadi:

Eng aziz va eng ulug' bayramimiz - Mustaqilligimizning xalqimiz hayotida nechog'li katta ahamiyatga egaligini, ushbu darsning esa ma'naviyatimizning shakllantiruvchi va buyuk maqsadlar sari yo'naltiruvchi eng ahamiyatli dars ekanligini o'quvchilarga tushuntirish va bu orqali ajdodlarimiz merosiga vorislik va iftixorlik tuyg'ularini uyg'otishga erishish.

Dars jihozlari:

1. O'zbekiston Prezidenti haqidagi albom va rasmlar.

2. O'zbekistonning Davlat ramzlari.

3. Amir Temur tuzuklari.

4. To'maris, Shiroq, Spitamen, Manguberdi, Muqanna to'g'risidagi ma'lumotlar va rasmlar.

5. Surxon tog'larida

SEN BILAN FAXRLANAMAN, AZIZ VATANIM!

*Istiqlol, Bunchalar go'zal bu noming,
Non kabi e'zozli, jondek sha'ning bor.
Yer shari yo'lladi otash salomin,
Assalom o'zbekim, qutlug' istiqlo!*

jasorati haqida gapirish.

Mustamlaka yurtning shohi ham quldir,

Bo'g'zing qisib turar xo'jasin dasti.

Bugun O'zbekiston hur, mustaqildir,

Shuning o'zi senga shohlik emasmi?!

Bugun bizga berilgan taqdirning buyuk ne'mati - Istiqlolimizning 11 yilligi keng tantana qilinayotgan ulug' kundir. Jannatmakon yurtimiz zamini muqaddas istiqlo nurlari bilan nurafshon bo'lganiga 11 yil to'ldi. Ushbu bayram xalqimizning XX asr

Allohga, yurtboshimizga shukronalik keltiradigan, bu farovon kunlarimiz uchun jon fido qilgan yurtdoshlarimiz nomlarini yod oladigan kundir.

Bu faraxbaxsh yillarimizning yurtboshimiz tomonidan salmoqli qilib «Oila yili», «Ayollar yili», «Ona va bolalar yili», «Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qilinishida purma'no bor. Ularning zamirida kelajagimiz egalari bo'lmish siz aziz bolajonlarga g'amho'rlik, bir qo'li bilan dunyoni tebratayotgan onalarimizga



*Bo'lay desang baquvvat, sog'lom,
Sport bilan do'stlashgin har on.*

Uchinchi maktub KONFUTSIY VATANIDA

Assalomu alaykum buvijonim va dodajonim! Toshkentdan uchib ketganimizga atigi ikki hafta bo'ldi, lekin men ham, Oyzoda ham sizlarni juda sog'indik. Biroq, bu yerdan ketgimiz ham kelmayapti. Chunki kunda ko'p yangi narsalarni ko'rayapmiz. Biz hozir Szinyan shahrida, chet ellik talabalar yashaydigan yotoqxonada turibmiz. Bu yerdachi, buvijon, amerikaliklar, inglizlar, fransuzlar, afg'onlar, yaponlar, turkmanlar, ruslar va yana ko'p millat vakillari yashashadi. O'zbeklar faqat bizlarmiz. Men va Oyzodadan boshqa bu yerda yosh bolalar yo'q. Shuning uchun yo'lakka chiqsak, kechqurunlari ko'pchilik bizga e'tibor beradi, biz bilan biroz o'ynashni xohlashadi. Katta-katta yigit va qizlar biz bilan xuddi yosh bolalardek quvlashmashoq, bekinmashoq o'ynashadi. Kelganimizdan beri oyijon ikki marta palov osh pishirdilar. Qo'shnilarimizni ham mehmon qildik. Palov oshimiz hammaga yoqdi. Maqtab-maqtab yeyishdi. Adamning xitoylik do'stlariga ham yoqdi. Biz kelganimizdan beri Jo shu-shu, Li shu-shu, Din shu-shular tez-tez kelib turishadi. Bizga shaharning eng chiroyli joylarini ko'rsatishga harakat qilishadi.

Szinyan katta shahar ekan. U Xitoyning eng katta viloyatlaridan biri hisoblangan, Xitoyning Sariq dengizga yaqin joylashgan Shandun viloyatining markazi. Siz bu shaharni

adamlarning xonalaridagi xaritadan ko'rsangiz bo'ladi. Adam jo'nab ketishlaridan oldin «Men mana shu shaharga o'qishga ketayapman», deb xaritadan ko'rsatgan va qizil qalam bilan doira ichiga olib qo'ygan edilar. Adamlar o'qiyotgan Shandun universiteti ham dunyoga tanilgan universitet ekan. Shuning uchun ham bu yerga ko'p mamlakatlardan talabalar kelib o'qishar ekan. Katta bo'lganimda men ham shunga o'xshagan universitetlarda o'qigim kelayapti!

Dam olish kuni sayohatga chiqdik. Adamlar: «Konfutsiy vatanini ziyorat qilamiz!» dedilar. Konfutsiy vatani Shandun viloyatining Syuyfu shahrida ekan. Bu ziyoratgoh 1994 yilda YUNESKO tomonidan jahon madaniy meroslar katalogiga kiritilgan ekan. Xitoyga kelgan mehmonlar albatta bu yerga kelishar ekan. Adam viloyatning janubida joylashgan Syuyfu shahri qadimiy tarixga ega ekanligini, qadimiy xitoy madaniyati o'chog'i hisoblanishini aytdilar. Bu shaharning endilikda butun dunyoga mashhur bo'lishining sababi Xitoy xalqining buyuk mutafakkiri, Xitoy mamlakati tarixida konfutsiylik ta'limotini



Buyuk mutafakkirning 76- avlod nabirasi bilan Adam Erkin AMINOV.

yaratgan, siyosatchi va buyuk ustoz Konfutsiyning aynan shu yerda tug'ilib o'tgani ekan. Zero, Konfutsiy ta'limoti Xitoyning ijtimoiy taraqqiyoti, tarixi va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatibgina qolmay, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga, ayniqsa, Sharq

BUNYANGA

sivilizatsiyasiga ham katta hissa qo'shibdi. Shuning uchun ham Konfutsiy jahon madaniyatining buyuk arboblardan biri deb tan olingan ekan.

Buvijon, men avvaliga xuddi bizning Imom Buxoriy kabi ziyoratgohni ko'rsam kerak, deb o'ylagan edim. Konfutsiy bizning eramizdan avval yashab o'tgan bo'lsa ham, uning vafotidan keyin vatanida buyuk mutafakkir va ma'rifatparvar sha'niga ulkan ibodatxona qurilgan, katta saroy ansambli va bepoyon daraxtzor yaratilgan ekan. Ular Konfutsiy nomi bilan: «Konfutsiy ibodatxonasi», «Konfutsiy saroyi ansambli», «Konfutsiy daraxtzori» deb yuritilgan ekan. Ularning hammasida qadimgi xitoy madaniyatining an'analari yaqqol sezilib turgani, juda qiziqarli bo'lgani uchun ham, biz u yerda kechgacha qolib ketdik. Lekin Oyzoda ham, men ham charchaganimiz yo'q. Hammasini esimizda saqlab qolishga harakat qildik. Sizga

ham ular haqida alohida-alohida so'zlab bermoqchiman.

Konfutsiy ibodatxonasi Syuyfu shahrining markazida qad ko'tarib turibdi. U yirik sharq arxitektura ansambllarining biri hisoblanarkan. Konfutsiy ibodatxonasi avvalgi maktublarimda hikoya qilgan ziyoratgohlar kabi

Xitoydagi uchta yirik qadimgi xitoy arxitektura ansambllarining (Pekindagi



Buyuk mutafakkir Konfutsiy.

Gugun saroyi, Xebeydagi «Bishushanchjuan» imperator qarorgohi shular jumlasidandir) biri sifatida ham mashhur ekan.

Imperatorlarning Konfutsiyga qurbonlik keltiradigan joyi sifatida Konfutsiy ibodatxonasi eramizdan avvalgi 478- yilda, ya'ni Konfutsiy vafotining ikkinchi yilida qurila boshlangan ekan. Dastlab uning uchtagina zali bo'lgan ekan. Xan davrida (e.a. 206-220 y.y.) imperator Udi konfutsiylikka katta e'tiqod qo'yib, asta sekin bu ta'limotni butun Xitoyning feodal madaniyatiga

aylanishiga katta hissa qo'shgan ekan. Saroy ayonlari Konfutsiyning pir bilib sig'inishar ekanlar. Aksariyat imperatorlar bu yerga o'zlari qayta-qayta ziyoratga kelishar yoki o'z vakillirini qurbonlik bilan yuborishar ekan. Masalan, Sin imperatori Syanlun Konfutsiy ibodatxonasini sakkiz marta ziyorat qilgan ekan. Bunday ziyoratlar

Mening ko'zimga esa ular juda sirli ko'rinib ketdi. O'zimni xuddi usti ochiq bepoyon tosh yozuvi ko'rgazmasiga kirib qolgandek his qildim.

Konfutsiy saroyi ansambli undan keyingi ko'p avlodi uchun bevosita vatan xizmatini o'tab kelgan ekan. Sun imperatori Jenzun

MARKTUBLAR

oqiati Konfutsiy ibodatxonasining chegaralari yildan-yilga kattarib boraverar ekan. Shu tariqa ayniqsa Minlar (1368-1644 y.y.) va Sinlar (1644-1911 y.y.) davrida ko'p qurilishlar olib borilib, ibodatxona bugungi kundagi mahobatli ko'rinishiga ega bo'libdi.

Konfutsiy ibodatxonasi jami 218 ming kv.m. maydonni egallarkan. Unda jami 9 saroy, 466 alohida xona, 54 ta yodgorlik arkasi borligini aytishdi. O'zining mahobati, ulug'vorligi, arxitektura g'oyasi bilan yechimining uyg'unligi, nafis ijrosi bilan butun mamlakatga va butun jahonga mashhur bo'lgan Konfutsiy ibodatxonasi qizil g'ishtli devor, yodgorlik arkalari, burchakli minoralar bilan qurshalgan.

Konfutsiy ibodatxonasida 2100 dan ortiq yozuvli tosh yodgorliklar mavjud ekan. Bir qarashda ular xuddi tosh o'rmonga o'xshaydi, buvijon! Hammasida eski xitoy yozuvlari bor. Adajon bu yozuvlar bugungi kishilar uchun ham, kelajak avlod uchun ham juda muhim dedilar. Ularni o'qib, tarixni o'rganish mumkin ekan.

Konfutsiyning 46 avlodidagi nabirasini «Yanshegun» unvoni bilan siylagach, Konfutsiyning uyi «Yanshegun qarorgohi» nomini oldi. Bu ulkan arxitektura-bog' majmuasida 463 alohida xona mavjud bo'lib, ular 160 ming kv.m.



Konfutsiy tug'ilgan joy.

maydonni egallagan, janubdan shimol tomon 2 km.ga cho'zilgan ekan.

Konfutsiy saroyi ansambli ibodatxonaning sharqida joylashgan bo'lib, sharqiy, g'arbiy va markaziy qismlarga bo'lingan. Ansambli sharqiy qismida Konfutsiyning o'z uyi va ustaxonalar joylashgan. Harbiy qismda mehmonxonalar va

qiroatxonalar joylashgan. Saroy ansamblining asosiy qurilishlari uning markaziy qismidadir: uning old tarafida xizmat xonalari, orqa tomonida esa istiqomat xonalari joylashgan. Xonalardagi nafis jihozlar, madaniy yodgorliklar bizlarni hayratga soldi. Adamlar Konfutsiy saroyi ansambli saqlanayotgan barcha qadimiy asori atiqalar qadimgi Xitoy tarixi va madaniyatini o'rganishda katta ahamiyatga egaligini aytdilar.

Konfutsiy daraxtzori Syuyfudan shimol tomonga cho'zilgan bo'lib, unda Konfutsiy avlodi xilxonasi joylashgan ekan. Bu qabriston Xitoydagi eng yirik va yaxshi saqlangan qabriston hisoblanar ekan. Konfutsiyning o'zi Syuyfu shahrining shimolida, Chjushuy daryosi bo'yiga dafn qilingan ekan. Konfutsiy ta'limotining ahamiyati o'sib borishi bilan birgalikda uning daraxtzori maydoni ham kengayib boribdi. Sinlar davrida uning umumiy maydoni 2 kv.km. ga yetgan ekan. Daraxtzorni umumiy uzunligi 7,5 km., balandligi esa 3,4 m. bo'lgan devor o'rab turarkan.

Konfutsiy daraxtzorini inson qo'li va zakovati bilan yaratilgan ulkan bog' deyish mumkin. Unda ko'plab qadimiy Xitoy arxitektura yodgorliklari qad ko'tarib turibdi. Bog'da 20 ming tup ming yillik daraxtlar bor deyishdi. Yuz minglab ulkan daraxtlar barq urib o'sayapti. Siz ham kelgandagina, ularni



Konfutsiyning qabri.

ko'rganingizda qanday yaxshi bo'lardi! Bu yerda ham ko'plab qabr toshlari bor ekan. Adamlar ular juda-juda qadimgiligini, Shimoliy Sun dinastiyasi va hatto undan ham avvalgi Min va Sin davrlariga oid tosh yodgorliklari borligini aytdilar. Bu ulkan daraxtzorni xitoyliklar g'urur bilan – yer yuzidagi jannat bog'i deb atashar ekan.

Syuyfudan kechqurunda charchab qaytdik. Oyzoda mashinada uxlab qoldi. Adam mening ham uxlab qolishimni istamay gaplashib keldik.

- Ana qara, oy to'lishibdi. Unga qarab turib buvijonga salom aytsang, u salomingni yetkazadi. Buvijon ham oymumaga tikilib turgan bo'lsalar, balki unda seni ko'rarlar, - dedilar.

Rostdan ham meni ko'rayapsizmi, buvijon? Men sizni juda sog'indim! Sizga oymumadan bir quchoq salom yuborayapman. Sizni juda yaxshi ko'ramiz! Dodamlarga, amakimlarga, ammamlarga salom deng. Ularni ham juda sog'indik. Keyingi xatimgacha xayr!

Nabirangiz

Kamron AMINOV.

Xitoy Xalq respublikasi,
Szinyan shahri.

ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

(Boshi o'tgan sonda.)

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

Natijada onasi jodugarlikda ayblanib, hayoti xavf ostida qoladi. Kepler bir necha yil shu ishning orqasidan yugurib, kimlargadir pora qistirishiga va yana kimlargadir

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

xushomadgo'y maktublar bitishiga to'g'ri keladi. Zotan, XVI asr zulmatini inkvizitsiya gulxanlari yorishtirib turgan, Galileydek daholarning irodasini sindirayotgan dahshatli davr edi bu. Mashaqqatli hayotining boshidan to oxirigacha shayton Keplerning qulog'iga shivirlab turdi: «Ichkilikka beril — hammasini unutasan», «Mast-alast davralarda janjalga aralash — pichoq zarbidan o'lasan ketasan», «Yo'l chekkasidagi manavi qora tuproqqa yotgin-u bag'riga singib ket — barcha tashvishlaring ariydi», deb betinim avrayveradi. Biroq Kepler bu shivir-shivirlararo surgalib-sudralib bo'lsa ham oldinga intildi, zulmat qo'ynidan o'z yulduzlarining yog'dusi sari talpindi.

«U 1630 yili Regensburgda, 58 yoshida tinka-madori qurib, g'am-tashvish va qashshoqlikdan vafot etdi», deb yozadi biograflaridan biri. *Iogann Keplerdan ko'p sonli farzandlariga 22 florin, 2 ta ko'ylak, «Efemeridalar» asarining 57 ta va «Rudolfjadvallari»ning 16 ta nusxasi meros qolgan edi.* «Tush» asari vafotidan keyin chop etildi. Insoniyatga esa u Keplerning uchta qonunini meros qilib qoldirdi. Hozirgi vaqtda dunyodagi barcha maktablarda o'qitiladigan bu qonunlar sayyoralar astronomiyasi abadulabad tayanadigan uchta asosga aylanib qolgan.

Kepler ko'plab kitoblar yozgan, bu ajoyib asarlarda fanatizm bilan mistika dahoning aql bovar qilmas kashfiyotlari bilan yonma-yon turadi. Sayyoralar harakatidagi buyuk mantiqni insonlar orasida birinchi bo'lib anglab yetgan olim: «Parvardigor yangi yoritqich

istalgan joyda va istalgan paytda chaqnashiga amr qilishi mumkin», degan satrlarni bitadi.

«Bu yoritqichlarni kuzatish e'tibor qilishga arziydi», -deb yozadi u kometalar haqida, -chunki ular qaytib kelmaydi». Lekin shu o'rinning o'zidayoq bu osmon jismlarigacha bo'lgan masofani mutlaqo to'g'ri hisoblab, kometa


tushunadi, ammo o'zini yupatishga urinadi: «Astrologiya —

astronomiyaning noqonuniy bo'lsa ham qizi har qalay, binobarin, qiz ochdan o'lishi aniq bo'lgan onasini boqishi tabiiy

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

hol».

SAYYORALAR SARDORI



dumlarining tabiatini tushuntirib beradi.

G'AROYIB ZOYICHANOMA

Kepler ko'plab zoyichanomalar tuzgan, qator hollarda bu uning asosiy tirikchilik manbai edi. «Yerdagi ishlar osmondagi yoritqichlarga bog'liq, deb o'ylab odamlar yanglishadi», deb yozadi u ochiqchasiga. Olimning munajjimlik — astrologiyaga munosabati ham murakkab va chalkash. Biroq, uning favqulodda ziyrakligi va kuzatuvchanligi tufayli tuzgan zoyichanomalari nihoyatda ommalashib ketardi. «Ayrim voqea-hodisalarni mijozning fe'l-atvori, ruhiyati, aql-idroki, kuch-quvvati hamda tana tuzilishini hisobga olmagan holda, faqatgina osmonga qarab bashorat qiluvchi munajjim noto'g'ri yo'l tutadi», deb yozadi u. Munajjimlik nimasi bilandir folbinlikka yaqin turishini Kepler

U zoyichanomalari uchun qancha haq olgani hozirda noma'lum, biroq avlodlarga qolgan eng mukammal va eng qiziqarli bir zoyichanoma uchun sariq chaqa ham olmagan aniq, chunki 26 yoshli Iogann Kepler

uni o'zi uchun tuzgan edi. Na sarlavhasi va na boshlanishi bo'lgan, jumlaning qoq yarmida uzilgan bu g'aroyib hujjat hozir Sankt-Peterburgda, Rossiya Fanlar akademiyasining arxivida saqlanadi. Mohiyatiga ko'ra u zoyichanoma emas, balki ko'proq tavba-tazarruga o'xshab ketadi — unda Kepler shunchaki qalbini tahlil qilmagan, aksincha, butun borlig'i, ruhiyati, botiniy olamini tilkalab, qiyma-qiyma qilib tashlagan. Bor-yo'g'i bir necha sahifaning birontasi ham o'chirilmagan, ammo shu sahifalarning o'zidayoq muallif o'zi ustidan necha bor chiziq tortib tashlagan!

Zoyichanomaning birinchi jumlasini bir qadar balandparvoz. Bu, ehtimol, muallif o'z-o'ziga uchinchi shaxsda murojaat etishi tufayli shundaydir: «Boshqalarni cho'chituvchi mashaqqatli vazifalarni hal qilish va butun umrini shunga bag'ishlash bu odamning peshonasiga bitilgan». Bu zoyichanomada Kepler o'z shaxsiyatining jamiki ziddiyatlarini, beqaror kayfiyati shiddat bilan o'zgarib turishini, o'zining og'ir fe'l-atvorini boshdan-oyoq belgilab bergan azob-uqubatli, betuturuq asabiylik holatini go'yo ataylab namoyish etayotgandek tuyuladi.

(Davomi bor.)

Kim ekan u, deysizmi? Uni taniysiz.
«Ha, ha, ha», «Dono bobo davrasida»
ko'rsatuvlarida ajoyib rollar yaratgan.
Bu yil 5-sinfni tugatib, a'lo baholar
bilan 6-sinfga ko'chgan qiz... Keling,
yaxshisi bir boshdan gapirib bera
qolay.



Men «Bulbulcha» bolalar dastasi
badiiy rahbari Shermat aka Yormatov
haqida maqola yozish uchun
televideniyega borgandim. U kishini
kutib o'tirgandim, jarangdor, quvnoq
ovoz xayolimni bo'ldi:

- Shermat aka bor ekanlarmi?
- Kutib turibman, kelsalar kerak.
- Sizni qayerdadir ko'rganman.

Qizchaga qaradim, sochlari
qo'ng'iroq-qo'ng'iroq, o'ziga
yarashtirib ixcham kiyinib olgan, jinsi
koftasining cho'ntagiga ruchka va
ko'zoynak ilib qo'yibdi (oftobdan
saqlanish uchun), qo'lida tug'ilganligi
haqida guvohnoma va daftar.

- Siz ham menga tanish
ko'rinyapsiz. Qani, guvohnomangizni
ko'ray. Ismingiz

Salomatxonmi?

- Guvohnomada

KEYIN MAKTABGA CHIQQANMAN

shunday yozilgan.
Meni Dilafro'z deb chaqirishadi. To'lan
aka esa «Shirinjon», ayrimlar
«Qaqajon» deb chaqirishlariga ham
o'rganib ketganman.

- Bu yerda nima qilyapsiz?

- Dilnoza opam «Dono bobo
davrasida» ko'rsatuvida boshlovchi
edilar. Meni ham To'lan aka
Qo'ziboyev 4 yoshimda ko'rsatuvlarga
taklif qildilar. Birinchi marta «Ha, ha,
ha» ko'rsatuvida Yodgora opa
Ziyamammedova bilan rol
o'ynadim. Bu sahna ko'rinishi
«Adashib qolgan qiz» deb nomlanardi.
Keyin «Eshik qoqqan kim?» da hech
kimga eshik ochmaydigan kichkina qiz
bo'lib o'ynadim. «Biz santexnikmiz»
deganlarga, «Aldayapsiz, o'g'risiz»,
deb eshik ochmaydi. Bu rolim ham
ko'pchilikka yoqqan. «Qo'g'irchoqlar
do'koni qayda?» spektaklida ham rol
o'ynaganman.

- Oilangizda san'atkorlar bo'lsa
kerak-a?

- Yo'q. Oyim — uy bekasilar, dadam
— haydovchi. Nig'matilla buvajonim
va Muattar buvijonim bizga bosh-
qoshlar. Sizga bir sirni aytay,
buvajonim katta qo'shiqlarni xirgoyi
qilib aytadilar. Oyimning dadalari
Nuriddin Sharifxo'jayev musiqadan

dars berganlar.

- Avval sahnaga, keyin maktabga
chiqqanman dedingizmi?

- Ha, Yosh tomoshabinlar
teatrida Gulchehra opa
Sa'dullayeva bilan qizcha
rolini o'ynaganman.
«Momojon, zardoli bering»
deyman. Ular meni
bag'rilariga bosib, «Qani,
shunday bolalarim bo'lsa»
deydilar... Unda maktabga
ham chiqmagandim.
Spektakl mukofot ham oldi.
Sahnada menga gullar
berishdi.

- Sizni u



AVVAL SAHNAGA,

KEYIN MAKTABGA CHIQQANMAN

taklif qildi?

- Rejissyor Hamid Qahramonov va
Yodgora opalar YOTTga olib borishgan.
«Shoirilar - bolalarga» ko'rsatuvida
qatnashaman. Shu kunlarda «Qirq
tog'oraning qirq nog'orasi» videofilmi
namoyish qilinmoqda, ko'ryapsizmi?
Unda ham qatnashdim.

- Mana, hozir ta'til kunlari bo'lishiga
qaramay, Shermat akaning yonlariga
kelibsiz.

- Yana bitta orzuim bor, «Bulbulcha» da
qatnashmoqchiman.

- Qani, bitta qo'shiq aytib bering-chi.
Yaxshi aytsangiz, Shermat akaga
aytaman, sizni qabul qiladilar.

Dilafro'z qo'shiq boshladi:

Ayting qachon nurga to'lar,
xonadonu xonalar,

Qadam bossa ostonadan unga ayting
onalar,

Shahargami, safargami, olislasak bir
qadam,

Bizni darrov eslagan kim, izlagan
qaysi odam?

U oyidir, u ayadir, u buvidir, onadir,
Bolasi deb, lolasi deb, onajonlar
yonadur.

- Zo'r aytdingiz-ku! She'rini kim
yozgan?

- Kavsar opa Turdiyeva men uchun
yozib berganlar. O'zim ham she'r yozib,
kuy bastalab, adajonimga atab qo'shiq

aytdim. Eshitasizmi?

Dilafro'z qo'shiqni shu qadar berilib,
go'zal harakatlar bilan ijro etardiki,
yo'lakdan o'tayotgan xodimlar albatta
unga qarab o'tardilar. U esa hech
uyalmay, tortinmay, bir menga emas,
ko'pchilikka, sahnada turib qo'shiq
aytayotganday his etardi o'zini.
Qo'shiq orasida «Hah» deb qo'yishlari
biram yarashardi.

- Dilafro'z, sinfdoshlaringiz haqida
ham gapirib bering.

- Akmal Ikromov
tumanidagi 106 -
maktabda o'qiyman. Sinf
boshlig'iman. Ba'zan
ustozlarim o'rniga dars
o'taman. Sinfdoshlarim
ko'zimga qarab turishadi.
Madina, Nilufar,
Mohirbek, Jamoliddin
kabi do'stlarim bor. Sinf
rahbarimiz Ulfat opa,
boshlang'ich sinfdagi
ustozimiz Mashkura opa
Aliyevalarni yaxshi
ko'raman, ularga
bag'ishlab qo'shiq ham

aytganman.

- Qo'shiq, ko'rsatuvlardan
tashqari yana nimalarga qiziqasiz?

- To'qiyman, qo'g'irchog'imga
ko'ylaklar tikaman. «Ifodali o'qish»
tanlovida shahar miqyosida I-o'rinni
oldim. Insho yozishga qiziqaman. O'zim
yozgan hazilni o'qib beraymi?..

Dilafro'z hazilini ham o'zi, ham
dugona bo'lib qoyilmaqom ijro etib
berdi. Ishonmasangiz, unga qo'ng'iroq
qiling, telefonda ham aytib beraveradi,
mazza qilib eshitasiz. Darvoqe, u bilan
yaqindan tanishmoqchi bo'lsangiz
maktub yozing: *Toshkent, General
Uzoqov ko'chasi, 6-Ipakchi, 119-uy,
telefon raqami — 43-47-78.*

- Dilafro'z, qobiliyatingiz, yoqimli
ovozingiz bor ekan, sizni, albatta
«Bulbulcha» ga olishadi.

- Aytganingiz kelsin, lekin yana bir
orzuim, Glier musiqa maktabida o'qish.
Tanlovdan o'ta olarmikanman?

Siz nima deysiz, bolajonlar?
Dilafro'zni televizorda ko'rgandirsiz,
she'r yozib, kuy bastalasa, qo'shiq
aytsa, a'lo bahoga o'qisa, tanlovlar
g'olibi bo'lsa... Musiqa maktabida
iste'dodlilarga alohida e'tibor
berilishini ustozlar unutmagan
bo'lsalar, Dilafro'z albatta u yerda
o'qiydi. Zero, Dilafro'z — bizning
kelajagimiz. Darvoqe, uni muchal to'yi
— 12 yoshi bilan qutlaymiz.

Gulyuz BAHODIR qizi
suhbatlashdi.

Soliqlardan saboqlar

(Boshi o'tgan sonda.)

Movoraunnahrda IX-X asrlarda yerlarni soliqqa tortishda ularga egalik qilayotgan mansabdorlarning qaysi tabaqaga mansub ekanligiga qarab soliqlar belgilangan. Yerlar ularga egalik qilish huquqiga qarab uch toifaga bo'linib soliqqa tortilgan. Birinchi toifadagi yerlarga, sultonga tegishli yerlar — mulki sultoniy kirgan. Bu davrda hukmronlik qilgan sultonlar juda katta yer fondlariga egalik huquqini olishgan. Soliqqa tortish nuqtai nazaridan bunday yer - maxsus tartib qoidalar asosida nazoratga olingan.

Soliqqa tortiladigan ikkinchi toifadagi yerlarga shu davrdagi hukmron sulolaning ayrim yaqin a'zolari, saidlar, oliy tabaqa ruhoniylar, yirik savdogarlar egalik qilishgan.

Musulmon diniy muassasalar — masjid, madrasa, xonaqoh va maqbaralarga vaqtincha yoki butunlay vaqf qilingan yerlar bo'lgan.

Yuqorida keltirilgan uchchala toifadagi yerlar xiroj solig'iga tortilgan. Bu soliqning nomi «Mulki xiroj» deb atalgan.

Mulk sifatida yerga egalik qilgan hukmdor va boshqa mulkdorlar yerdan foydalanishda ijaraga berish yo'li bilan daromad olishgan. Movoraunnahrda juda keng quloch yoygan yerni ijaraga berish usuli yer egalari juda katta miqdorda mehnat harajatlarisiz boylik keltirgan. Odatda yerni ijaraga olib

mehnat qilgan dehqon natijaviy xosilning uchdan biridan o'n ikkidan birigacha bo'lgan qismini olishga huquqi bo'lgan. Bunday ulushlar o'zaro kelishuv yo'li bilan amalga oshirilgan. «Mulki xiroj» solig'i yer egasidan va ijaraga olgan dehqondan ularning xosildagi ulushiga mutanosib

natijasida soliqqa tortish tizimi ham butunlay yangicha tus oldi. Mo'g'ul zodagonlari bosib olingan xududlarning ijtimoiy holatini yaxshilash bo'yicha aniq yo'nalishdagi rejalari bo'lmaganligi va o'troq aholini boshqarish tajribasining yo'qligi o'sha davrdagi Markaziy Osiyo

bajarish tartibida qo'shimcha ish bajarishga majbur etilardi. Bunday xizmatlar evaziga arzimagan miqdorda oziq-ovqat berilardi.

Zaxmatkash xalqdan yana bir usulda manfaatdor bo'lish joriy etildi. Bo'ysundirilgan mamlakatlardagi savdogar va feodal ruhoniylariga xonliklar

tomonidan maxsus payzalar ulashilgan. Payza uning sohibiga maxalliy aholidan,

ya'ni dehqon va hunarmandlardan payza egalari ehtiyoji uchun zarur bo'lgan xizmat va majburiyatlarni bajartirish huquqini bergan. Masalan, payza ko'rsatilganda uni oziq-ovqat va alohida xona bilan ta'minlash, otiga yem berish va boshqa qulay sharoitlar yaratish majburiyati so'zsiz bajartirilgan.

Mo'g'ullar shu tarzda Movoraunnahrda 17 yil zo'ravonlik va suiste'mol qilishi tizimini o'rnatib, xalq hayotini o'ta qashshoqlashtirib yubordilar.

Dehqon va hunarmandlardan yig'iladigan soliqlar, o'lponlar va xizmat tariqasidagi majburiyatlarning haddan tashqari og'irligi va hukmdorlar boshqaruv tizimidagi adolatsizliklarga qarshi 1238 yilda Buxoroda soliq yig'uvchi noib Maxmud Torobiy boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi.

(Davomi bor.)

Sharofiddin RASULOV,
Toshpo'lat MIRZAYEV.

MARKAZIY OSIYODA MO'G'ULLAR HUKMRONLIGI DAVRIDAGI SOLIQLAR

ravishda undirilgan.

Zamonlar o'tib, arab xalifaligi o'rmini boshqa hukmdor sulolalar birin-ketin egallay boshladi.

X asr boshida Movoraunnahrda forsiy hukmdorlar o'rmini qoraxoniylar, ya'ni turkiy sulola hukmdorligi egalladi. Bunda markazlashtirilgan davlat boshqaruvi tizimi xonliklar mulkiga asoslangan ulus tizimi joriy etildi. Qoraxoniylar egallagan xududlardagi barcha yerlar xon mulkiga


aylantirildi. Yerga bo'lgan mulkiy munosabat huquqining o'zgarishi oqibatida soliqqa tortishning yangi ko'rinishlari vujudga keldi.

Lekin hokimiyat qanday hukmdor sulolaga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar soliq solinadigan asosiy ob'yekt yer bo'lib qolaveradi. Yer egaligi bir hukmdordan boshqa hukmdorga o'tishi feodallar urushi oqibatida yuz berar edi.

Markaziy Osiyoni mo'g'ul bosqinchilari tomonidan zabt etilishi va 1221 yildan boshlab mo'g'ullar hokimiyati o'rnatilishi

xududidagi viloyatlari kuchli inqirozga yuz tutdi.

Chingizxon va uning amaldor avlodlari hukmdorligi davrida



Markaziy Osiyo aholisidan majburiy ravishda o'lpon solig'ini undirish tizimi joriy etildi. Soliqlar qishloq xo'jalik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va pul ko'rinishda undirilardi.

Movoraunnahrda soliq yukining haddan tashqari og'irligi dehqon va hunarmandlarning ahvolini yomonlashtirib yubordi. Aholidan nafaqat soliqlar, balki boshqa turli majburiyatlar va xizmatlar bajarishni talab qilinar edi. Ayniqsa, hunarmandlar va qurolsozlar natura majburiyatini

Ingliz tilini mukammal o'rganishni astoydil maqsad qilgan va bu yo'lda tinmay, jon-jahdi bilan intilayotgan aziz bolajonlar!

Gazetamizning o'tgan sonlaridan birida «Ingliz tilini o'rganamiz» nomli sahifamizda «Diplomatiya, uning tarixi va tashqi siyosat tushunchalari»ga oid inglizcha tekstni e'tiboringizga havola qilgan edik.

Bugungi darsimizda shu tekstga oid savollar, antonim va sinonim so'zlarga oid mashqlar, qiziqarli mavzulardagi yangi tekstlar hamda foydali bo'lgan test savollarini hukmingizga havola etamiz.

1-MASHQ

Quyidagi sinonim (ma'nosi bir-biriga yaqin, o'xshash) so'zlarni yod oling! Tushunmagan so'zlaringizni lug'atdan toping, bu orqali lug'atdan qanday foydalanishni ham o'rganib borasiz.

SYNONYMS - SINONIM

SO'ZLAR

to make up - to form, to consist of, to be organized

to preside - to authorize, to be a chairman

to be concerned with - involved, interested, anxious

treaty - agreement

on behalf of - as the representative, member

to accomplish - to finish

to summon - to call together

means of protect - ways of defending

set of rules - a number of rules, grouped things kept together.

2-MASHQ

O'tgan darsimizdagi diplomatiyaga oid tekst bo'yicha berilgan quyidagi

savollarga inglizcha javob bering!

Questions to the text:

1) What is diplomatic community and where can it be?

2) What is diplomatic corps?

3) Whom is the diplomatic corps staffed by?

4) Who has the right to negotiate at international conferences?

5) What rules became the basis for Vienna Convention

in 1961?

3-MASHQ

O'tgan darsimizdagi diplomatiyaga oid

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ



WE LEARN ENGLISH

tekstni avval o'qib chiqib, so'ngra quyidagi test savollariga to'g'ri javobni aniqlang!

Exercise 3. Choose the suitable variant to the following:

1). «... the diplomatic corps, presided over by a senior member of the group» means

a) a member of the diplomatic corps supervises a group

b) a member of the group who is engaged with supply

c) a member of the diplomatic corps who has nothing to do with other

Jomolungma cho'qqisi — yer sharidagi eng baland cho'qqi bo'lib, u Himolay tog'ida joylashgan. Uning balandligi 8848 metr. Ko'p alpinistlar bu cho'qqiga ko'tarilish uchun harakat qilganlar. 1921 yildan boshlab turli mamlakatlarning 26 ekspeditsiyasi (yakka holdagilar bu hisobga kirmaydi) Jomolungmani shturm qildilar. Lekin unga, cho'qqiga chiqa olmay 30 dan ortiq jasur kishilar cho'qqining qor-muz bilan qoplangan yon bag'rida bir umrga qoldilar.

1924 yilda cho'qqiga

JOMOLUNGMA

CHO'QQISI

ko'tarilish uchun harakat qilgan ingliz alpinistlari o'z harakatlarini bunday tasvirlaydilar:

-8320 metr balandlikda

ochiq quyoshli kun edi,

biroq issiq

kiyingan kishilar

sovuqdan titrar

edilar. Faqat ikki

alpinistgina yo'lda

davom eta oldi.

8330 metr balandlikda havo yanada sovudi va shunchalik og'irlashgan ediki, alpinistlar har bir qadamdan keyin to'xtar va o'n marta nafas olar,

shundan keyin yana bir qadam olg'a bosar edilar. Shu tariqa ular 8372 metr balandlikka ko'tarildilar. Bundan ortig'iga esa ko'tarila olmadilar.

Ertasi kuni

cho'qqini shturm

qilgani shu

alpinistlardan ikkisi

yo'lga tushdi. Ular

o'zlari bilan kislorodli

priborlarni oldilar. Bu

alpinistlarning zo'r berib

ilgarilab borayotganliklarini

lagerdagilar ko'rib turgan

edilar. Birdan havoni quyuuq

members of the office

2). «At least six of the eight years of negotiation for the Peace of Westphalia were concerned with reaching agreement on the procedures for negotiating the treaty.» -means:

a) It took them six years of eight for the Peace of Westphalia agreement to achieve the decision how to negotiate

b) They couldn't achieve any result for Peace of Westphalia during six years.

c) They did their best to achieve results for the Peace of Westphalia but every effort was in vain.

3) European states were able to reach formal agreement on a set of rules for the conduct of diplomatic relation.

a) European states decided to accept a number of rules for diplomatic relations.

b) European states couldn't allow to accept any rule for diplomatic intercourse.

c) European states denied all suggested rules.

4) «... laid down the basis for future diplomatic intercourse» means

a) «... was the framework for future diplomatic relations»,

b) «... were on entirely wrong way for future diplomatic relations»

c) «... all the diplomats refuse to accept the mentioned set of rules».

(Davomi bor).

Sabog'imizni

Shohruhbek KARIMBEKOV

tayyorladi.

bulut bosib, ular ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Shundan so'ng ularni hech kim ko'rmadi. Ular qaytib kelmadilar. 1953 yilning 29 mayidagina ikki alpinist 8848 metr balandlikka ko'tarildilar. Yer yuzasidagi eng baland cho'qqi Jomolungma ularning oyog'i ostida qoldi. Jomolungma zabt etilgandi. Ular qo'llaridagi yondirgichni yondirib, yuqoriga ko'tarib, xursand bo'lib o'tirishgani suratda tasvirlangan.

Luiza ERGASHEVA,

geografiya fani

o'qituvchisi.

Chirchiq shahri.

Bizning to'garak

RAYHON

Turfa xil gullar,
Go'zaldir ular.
Rayhonning o'rnin,
Bosolmas ular.

Xusnin ko'z-ko'zlab,
Charchash bilmaydi.
Nozik rayhonni,
Pisand qilmaydi.

Ammo insonlar,
Gul qadrin bilar.
Kamtar rayhonni,
Xo'p e'zoz qilar.

Aziz do'stlarim,
Bu holni ko'ring.
Kamtarlik sirin,
Rayhondan so'ring.
Elyor GORO'GLIYEV,
Surxondaryo viloyati,
Denov tumanidagi
24 - maktab o'quvchisi.

ORZU

Ajdodlarim ruhi menga,
Madad bo'lar doimo.
Orzuim shu: osmonimiz,
Doim bo'lsin musaffo.

Asragaymiz biz o'zimiz,
O'z yurtimiz, uyimizni.
Do'stlar kular,


dushman kuyar,
Tinglab qo'shiq, kuyimizni.

Qizlarxon
AKRAMJON qizi,
Toshkentdagi
214 - maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.



KAPALAK

Kapalakjon kapalak,
Qanotlari charxpalak,
Guldan gulga ko'chasan,
Har birini quchasan.



Gulzor sen bilan go'zal,
Ta'rifingga tilim lol.
Quv nab, yayrab uchaver,
Gulzorimda mangu qol.

Barno TOJIBOYEVA,
Farg'ona viloyati,
Quva shahri.

KUZ

Yoz tugaydi, kuz kelar,
Yozga yuzma-yuz kelar.
Sarg'ish barglar to'kilar,
Samo seryulduz kelar.

Kuzning chiroyi o'zga,
Buncha yaqindir ko'zga.
Dasturxonga ko'rk berib,
To'ldirar rizqu ro'zga...

Dildora MUHIDDIN qizi,
Toshkent shahar,
S.Rahimov tumanidagi
298 - maktabning 3 - «B»
sinf o'quvchisi.



HAYVONLARNING DEGANI



TIMSOH

Mening nomimdir Timsoh,
Fe'limdan bo'ling ogoh.
Uzoq o'lja kutaman,
Bir yamlamay yutaman.

BEGIMOT



Men begemot bo'laman,
Erta kuchga to'laman.
Yirtqich deb o'ylamang
hech,
Yemishim o't, erta-kech.

QURBAQA

Menman o'sha qurbaqa,
Kuyim doim vaq-vaqa.
Basharam xunuk emish,
Menga bas bo'lsa yemish.



MAYMUN


Maymundir mening otim,
Juda qiziq hayotim.
Odamlarga o'xshayman,
Lek daraxtda yashayman.

TOVUQ

Men tovuqman, tovuqman,
Zo'r katakka loyiqman.
Tuxum tug'dim, kep qoling,
Avaylab, sekin oling.



Malohat DO'SATOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qarshi tumanidagi
18 - o'rta maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.



Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi
18 - maktabning 7 - «D» sinf o'quvchisi Umida
AHMAD XO'JAEVA kuchukchani rasmini
chizib yuboribdi.

Qatralar

TONG

Tong chog'i. Yaproqlarda shabnam tomchilari. Gulbarglar esa yangi kunni qutlab shiviraydi. Ko'tarilayotgan shafaq nurida atrof jilolanmoqda. Yangi umid, yangi niyat tug'ilmoqda. Men ham sening osmoningda porlashga intilayotgan jajjigina yulduzchaman, aziz «Tong yulduzi»m!

Iroda TOLIPOVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 8-umumiy o'rta ta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi.

BINAFFSHA

O'zini gullarning eng sarasi deb o'ylagan binaffsha, ko'rkini yanada namoyish qilish maqsadida bargiga yastanganча ochilishga intilaverarkan. Xushbo'y atrini atrofga taratib kekkaysa ham, odamzot tikanli atirguldandan guldasta yasayveradi. «Kamtarga kamol» deb shuni aytishsa kerak.

Zarnigor NAFETDINOVA,
Buxoro shahri,
5-sinf o'quvchisi.

EHTIYOTKORLIK

MULTIFILM KO'RA

-Buvi, ayting-chi, qilmagan ishlari uchun ham kishini koyishlari mumkinmi?

-Hech ham, nabiraginam.

-Ur-re, unday bo'lsa hammasi joyida ekan: uy vazifalarimni qilmagan edim.



QOLAY

Onasi o'g'liga dedi:

- O'g'lim, kechqurun kino ko'rma, ko'zingga zarar bo'ladi.

-Mayli oyijon, unda multfilm ko'ra qolaman...

SAVOLINI

UNUTDI

Qizcha dadasidan nimanidir so'ramoqchi bo'lib, erkalanib chaqirdi:

-Da-a-a-d-d-da...

Dadasi ham unga o'xshatib javob berdi:

-Ha-a-a-a...

Dadasining bu hazilidan lol qolgan qizcha aytar gapini ham unutib qo'ydi.

Iroda HAKIMOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi 320 - maktab o'quvchisi.

TUXUM
QO'YMAN

-Ha, tirrancha, yana menga shunday zarda qiladigan bo'lsang, seni tovuqxonaga qamab qo'yaman, -dedi ona o'g'liga.

-Ixtiyoringiz, men baribir tuxum qilmayman, -javob qaytardi o'g'li.

Malohat
YO'LDOSHEVA,
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi 214 - maktab o'quvchisi.



Sinf doshlarim bilan maktabdagi qaytayotganimda bo'lib o'tgan bir voqeadan so'ng Zebo menda o'zgacha taassurot qoldirdi. Unga ixlosim oshib, doim birga yuradigan bo'ldik. Bora-bora Zeboga qattiq bog'lanib qolganimni o'zim ham sezmay qolibman.

Paxta yig'im-terimiga hasharga chiqdik. Dastlabki kundanoq Zebo ikkovimiz egatlarda yonma-yon turib ishlay boshladik. Birinchi besh kunlik tugagach, mehnat haqlarimizni berishdi. Men ana shu puldan oyijonimga ro'mol olib berishni niyat qildim.

Tushlikni dalada qilganimiz uchun sumkalarimizga yegulik solib kelardik. Pulimni ham o'sha sumkaga solib qo'ydim. Hammamiz sumkalarimizni bir joyga

qo'yamiz. Kechqurun uyga kelgach sumkamni ochsam, ne ko'z bilan ko'rayki, pulim yo'q.



biz do'stmiz-ku. Akam biror shirinlik olib kelsa, uni ertaga Zebo bilan bo'lib yeymiz, deb olib qo'yardim. Zebo ham dadasi nima olib kelsa, men bilan bo'lishardi. Shunchalik inoqlashib ketgandikki, oramizdan qil ham o'tmasdi.

Nahotki shunday do'stim menga nopoklik qilsa... Ertasiga terimga chiqdim.

SAL QOLDI-YA

(Voqeyiy hikoya)

Pulimni qo'yayotganimni Zebodan boshqa hech kim ko'rgani yo'q. Nahotki Zebo olgan bo'lsa? Eng yaqin dugonam, do'stim, sirdoshim... Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Axir

Zeboni zimdan kuzatib turdim. U hech narsa bo'lmagandek men bilan munosabatini o'zgartirmadi. Men ham sir boy bermay, ilgari gidek bo'lishga urindim.

Biroq qalbmni shubha kemirardi. Garchi uning olmaganiga ishonsamda, ba'zan pulimni olib qanday chidab yuribdi ekan, degan fikr ham xayolimga kelardi. U menga haqiqiy do'stmikan yoki shunchaki aldab



yurganmikan, degan o'ylar tinchlik bermasdi.


Bir kuni yonimizdagi egatda paxta terayotgan ikki bola urushib qoldi. «Seni aytib beraman», dedi ulardan biri. «Sumkadagi pulni o'g'irlagansan. Men qo'y, unday qilma, deganimga ham quloq solmagansan». Men qotib qoldim. Hamma narsa oydinlashdi.

Eh, men kallavaram, jonajon dugonam Zebo haqida qanday xayollarga borib yuribman-a. O'zimdan-o'zim uyalib ketdim. Yaxshiyamki undan pulni so'ramaganim. Aks holda, eng yaqin dugonamdan ajralib qolar ekanman.

Atirgul UNGARBOYEVA,
O'zMU qoshidagi S.Rahimov akademik litseyining II - kurs talabasi.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

«KONFETCHA» KROSSVORDI



SAVOLLAR

Bo'yiga:

1. Qizlar ismi. 2. Kuchuk nomi. 3. Rahm. 4. O'g'il bolalar ismi. 5. Tasanno, olqish.

Eniga:

1. Oybekning asl ismi — ... o'g'li. 6. Kichkina anhor. 7. Lug'at.

Malohat YO'LDOSHEVA,

Poytaxtimizdagi 214- maktabning 4 - «A» sinf o'quvchisi.

G	B	D	R	U	X	K	S	P	A
P	A	X	E	U	V	S	Z	I	B
I	Z	B	V	L	H	Z	J	Y	D
Y	O	Sh	D	U	J	J	Sh	O	E
O	Sh	E	V	Ch	Y	G	L	R	X
D	O	V	K	Sh	G	O	T	Z	L
A	X	R	S	S	O	L	S	U	Z
L	F	A	R	Z	I	N	D	K	R
X	U	O	T	V	D	U	R	V	D
I	T	V	K	Z	Ch	J	F	I	L

Shoxmot donachalari bu katakchalarda berkitilgan.

Boshingizni qotirib, o'ylab boqing!

Tuzuvchi: Umida AHMAD XO'JAEVA.

TONG
YulduziO'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvov SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 46.291
nuxsada ofset usulida bosildi.
Korxonalar manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-761
Gazetani
Muhabbat MAHSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08